QO‘G‘IRCHOQ TIKISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING O‘RNI

M. Rahimova
Qo‘qon Davlat Universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek milliy qo‘g‘irchoqchilik san’atining tarixiy ildizlari, qo‘g‘irchoq tikishda qo‘llaniladigan an’anaviy va zamonaviy texnologiyalar, materiallar hamda estetik talablari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Milliy qo‘g‘irchoqlar xalqning madaniy merosi, urf-odatlari va estetik qarashlarini aks ettiruvchi muhim amaliy san’at turi sifatida yoritiladi. Shuningdek, qo‘g‘irchoq tikish jarayonining bosqichlari, texnologik ketma-ketligi va ta’lim jarayonidagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *milliy qo‘g‘irchoq, amaliy san’at, qo‘g‘irchoq tikish texnologiyasi, milliy libos, hunarmandchilik.*

KIRISH

Qo‘g‘irchoq tikish- qadimiy san’at turlaridan biri bo‘lib, u bolalar o‘yinchoqlari, dekorativ buyumlar va sovg‘alar yaratishda qo‘llaniladi ushbu texnologiya dizayn, matolar va tikuv mahoratining uyg‘unligini talab qiladi.

Milliy qo‘g‘irchoqlar xalq amaliy san’atining qadimiy va muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat bolalar o‘yini uchun mo‘ljallangan buyum, balki xalqning turmush tarzi, kiyinish madaniyati, estetik didi va ma’naviy qadriyatlarini mujassamlashtiruvchi madaniy timsoldir. O‘zbek milliy qo‘g‘irchoqlari o‘ziga xos liboslari, ranglar uyg‘unligi va bezak elementlari bilan ajralib turadi. Bugungi kunda milliy qo‘g‘irchoq tikish texnologiyasini o‘rganish va rivojlantirish nafaqat hunarmandchilikni asrash, balki yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mazkur maqolada milliy qo‘g‘irchoq tikish texnologiyasi ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Milliy qo‘g‘irchoqchilik san’atining tarixiy asoslari. O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatri an’analari eramizdan avvalgi VI-IV asrga, Ahamoniylar hukmronligi davriga borib taqaladi. Biroq, qo‘g‘irchoq teatri XIV asrga, Amir Temur hamda Temuriylar hukmronligi davriga kelib keng tarqala boshlagan. Ipli qo‘g‘irchoq hamda qo‘lqopli qo‘g‘irchoq teatrlari alohida ommabop bo‘lgan. Qo‘g‘irchoq teatri qo‘g‘irchoq tikish bilan bog‘liq bo‘lganidan ko‘rinadiki, bu san’at turi Markaziy Osiyoda ko‘p asrlik tarixga ega.

O‘tgan asrning elliginchi yillaridan keyin qo‘g‘irchoqbozlikning asriy an’anaviy turlari bir muddat unutila boshlandi. Hozirgi kunga kelib qo‘g‘irchoqlarni yasovchi hunarmandlarning say’i harakatlari tufayli o‘sha an’analar tiklanishga yuz tutdi. Bunday ustalar ichida Xorazm viloyatining Xonqa tumanida yashovchi Mansur Quryazov alohida o‘ringa ega. Chunki u o‘z ijodida qo‘g‘irchoq tayyorlash san’ati bilan uni o‘ynatish san’atini qamrab olgan.

O‘zbek qo‘g‘irchoqchilik san’ati ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Arxeologik va etnografik manbalarga ko‘ra, qo‘g‘irchoqlar dastlab marosimiy va

tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan. Keyinchalik ular bolalar o‘yinchoqlariga aylangan. An’anaviy qo‘g‘irchoqlar ko‘pincha: mato parchalari, yog‘och, jun, tabiiy bo‘yoqlar asosida tayyorlangan. Hududlarga qarab qo‘g‘irchoq ko‘rinishi va bezagi farqlangan. Masalan, Buxoro va Samarqand hududlarida liboslarning naqshlari murakkabligi bilan ajralib tursa, Farg‘ona vodiysida rang-baranglik va yengil shakllar ustun bo‘lgan.

Milliy qo‘g‘irchoq tikishda ishlatiladigan materiallar.

Milliy qo‘g‘irchoq tikish texnologiyasida material tanlash muhim bosqich hisoblanadi. Asosiy materiallar quyidagilardan iborat:

- Mato turlari paxta matolari (chit, satin), ipak va atlas, adras, bekasam kabi milliy matolar.

Bu matolar ekologik toza bo‘lib, qo‘g‘irchoqqa milliylik ruhini beradi.

- To‘ldiruvchi materiallar: paxta, jun, sintepon (zamonaviy texnologiyada).
- Bezak materiallari: ipak iplar, munchoqlar, milliy naqshli lentalar, kashta elementlari.

Materiallarning tabiiyligi qo‘g‘irchoqning nafaqat estetik, balki tarbiyaviy ahamiyatini ham oshiradi.

Milliy qo‘g‘irchoq tikish texnologik jarayoni. Milliy qo‘g‘irchoq tikish bir necha ketma-ket bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir bosqich aniq texnologik talablarni o‘z ichiga oladi.

- Loyihalash va eskiz tayyorlash. Avvalo qo‘g‘irchoqning: o‘lchami, jinsi, libos turi, bezak elementlari aniqlanadi va eskiz chiziladi.
- Qolip tayyorlash. Qo‘g‘irchoqning tana qismlari (bosh, qo‘l, oyoq, tana) uchun qoliplar qog‘ozda chizilib, matoga ko‘chiriladi.
- Tikish va shakllantirish. Qismlar tikilib, ichiga to‘ldiruvchi material joylanadi. Bu bosqichda qo‘g‘irchoqning proporsiyalari va mustahkamligi ta’minlanadi.
- Libos tikish. Milliy liboslar alohida tikilib, qo‘g‘irchoqqa kiydiriladi. Liboslarda hududiy xususiyatlar aks ettiriladi.
- Bezash va yakuniy ishlov. Yuz ifodasi, soch turmagi va mayda bezaklar qo‘shilib, qo‘g‘irchoq yakuniy ko‘rinishga keltiriladi.

Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar


Bugungi kunda milliy qo‘g‘irchoq tikishda zamonaviy texnologiyalar ham qo‘llanilmoqda. Jumladan: kompyuter grafikasi asosida dizayn yaratish, lazerli kesish usullari, sun’iy materiallardan foydalanish. Biroq, ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy qo‘l mehnati asosida yaratilgan qo‘g‘irchoqlar milliy ruhni ko‘proq saqlab qoladi.

Ta’lim jarayonida milliy qo‘g‘irchoq tikishning ahamiyati

Milliy qo‘g‘irchoq tikish texnologiyasini ta’lim jarayoniga joriy etish: o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi, milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi, mehnat ta’limi fanining samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, maktab va kollejlar uchun bu yo‘nalish amaliy mashg‘ulot sifatida muhim ahamiyatga ega.

Qo‘g‘irchoq andozasi. Qo‘g‘irchoqni tikish uning andozasini tayyorlashdan boshlanadi. Qo‘g‘irchoqning andozasi (1-rasm)da keltirilgan. Bu andozani tayyorlash uchun rasmda keltirilgan andoza ustiga ixtiyoriy kattalikdagi o‘zaro teng kvadratlardan chiziladi. Bunda kvadratlar qancha mayda bo‘lsa, bezakning nuqtalari shunchalik aniq

ko‘chiriladi va konturlarining nusxasi ham oson chiziladi. Millimetrli qog‘oz yoki toza qog‘ozga buyum kattaligiga to‘g‘ri keladigan to‘g‘ritoo‘rtburchak chizib, uni bezakdagi kvadratlar soni qancha bo‘sa, shuncha kvadratlarga bo‘linadi.



1-rasm. Qo‘g‘irchoq andozasi.

Agar qo‘g‘irchoq andozasi kattalashayotgan bo‘lsa, bu kataklar nusxadagi kataklardan katta bo‘lib, andoza kichiklashayotgan bo‘lsa, bu kataklar asl nusxadagidan kichik bo‘lib chiqadi. Shundan keyin kataklar bo‘yicha asl nusxadagi bezak gulining asosiy nuqtalari toza to‘rga ko‘chiriladi. Bu nuqtalar ravon chiziq bilan ehtiyotlab birlashtirib andozani kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nusxasi hosil qilinadi. Rasm nuqtalarini oson topish uchun chizilgan to‘rning ikki tomoniga raqamlar qo‘yiladi. Yuqoridagi ishlar bajarilgach qo‘girchoqning quyidagi andozalari hosil bo‘ladi:

1. Tana qismi - 2 dona bichiladi.
2. Qo‘g‘irchoqning oyog‘i- 2 dona.
3. Qo‘g‘irchoqning qo‘li - 2 dona.
4. Qo‘g‘irchoqning kavushi - 2 dona.

Qo‘g‘irchoqning tana qismi quyidagicha tayyorlanadi:

1. Qo‘g‘irchoq tanasining bosh qismida 4 ta 3 sm. li vitachkalar gazlamaning teskari tomonidan belgilanadi va tikib olinadi.

2. Qo‘g‘irchoqning yuz qismida o‘ng tomondan qosh, ko‘z va og‘iz o‘rnilari belgilanadi.

3. Qo‘g‘irchoqningtana qismi detallarini o‘ngini o‘ngiga qaratib, atrofidan 0,5 sm. li chok uchta tomonidan tikib chiqiladi. Bo‘yin qismida ozgina kertim (ochiq joy qoldiriladi) berilib tana qismi o‘ngiga ag‘dariladi va ichi sintefon bilan to‘ldiriladi. Chok haqi ko‘rinmas chok bilan tikib qo‘yiladi.

4. Qo‘g‘irchoqningoyog‘i va qo‘llarini ham o‘ngini ichkariga qaratib 3 ta tomonidan tikib chiqiladi, ichi to‘ldiriladi va tana qismiga ulab qo‘yiladi.

5. Kavushini ikkiga bukilib tovon qismi tikiladi, ichi to‘ldirilib oyoq uchlariga biriktirib qo‘yiladi.

6. Qo‘g‘irchoqningyuz qismi kashta bilan tikib bezatiladi va sochi qora jun ipdan tayyorlanib, boshiga tikib yoki yelimlab yopishtiriladi.

7. Qo‘g‘irchoqninig libosi milliy matolardan, o‘zingizning boy tyasavvurlaringiz asosida tikiladi

XULOSA

Milliy qo‘g‘irchoq tikish texnologiyasi xalq amaliy san’atining muhim qismi bo‘lib, u milliy madaniyat va an’analarni avloddan-avlodga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Ilmiy asosda tashkil etilgan qo‘g‘irchoq tikish jarayoni hunarmandchilikni rivojlantirish, ta’lim tizimini boyitish va milliy merosni asrashga xizmat qiladi.

Milliy o‘yinchoqlar bolalarda milliy qadriyatlarga muhabbat ruhini singdirishda katta rol o‘ynaydi, o‘yinchoqlar kelajakdagi o‘ylari va orzularini amalga oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston xalq amaliy san’ati asoslari. – Toshkent, 2018.
2. Hunarmandchilik va milliy dizayn. – Toshkent, 2020.
3. Milliy liboslar va bezak san’ati. – Samarqand, 2019.